

**OTA-ONA QARAMOG'ISIZ QOLGAN BOLALARGA NISBATAN VASIYLIK VA HOMIYLIK  
MASALALARI**

*Sultonova Nazokatxon Otabek qizi*

*FarDu 3-bosqich talabasi*

**Annotatsiya:** *Rivojlangan davlatlarning rivojlanishdan avvalgi holatiga nazar solsak davlat avvalo oddiy aholi farovonligini hamisha ta'minlab berishga harakat qilganlar. Mamlakatimizda ham aholi farovonligini oshirishga dotit qator islar olib borildi. Maqolada vasiylik va homiylik masalari, ota –ona qarmog'isiz qolgan bolalarga davlat tomonidan yordam ko'rsatishda vositachi sifatida yordam berish masalalari yoritilgan.*

**Kalit so'zlar:** *bolalar, vasiy, taraqqiyot, homiy, nizom, guruhlar, qatlamlar, ijtimoiy himoya.*

O'zbekiston Respublikasining taraqqiyoti va ijtimoiy-iqtisodiy tomondan rivojlanishida barcha sohalar kabi ijtimoiy sohalarda ham chuqur o'zgarishlarni amalga oshirish asosiy talablardan biri bo'lib kelgan. Aholini ijtimoiy himoyalash va ijtimoiy ta'minot, aholining salomatligi va sog'liqni saqlash tizimi, kadrlar tayyorlash va ta'lim tizimini rivojlantirish bugungi kunning ham eng dolzarb vazifalaridan biri bo'lib qolmoqda. Ayniqsa, ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotiga o'tish davrida aholini ijtimoiy himoyalash, islohotlarni "ijtimoiy larzalarsiz" yakunlash bevosita ijtimoiy sohaga jiddiy yondashishni talab etdi. Chunki ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyoti bozor mexanizmining samarali ishlashini, aholi turmush darajasining yuqori bo'lishini va kuchli ijtimoiy kafolatlarni nazarda tutadi. Butun islohotlar jarayonida respublikamizda aholining ijtimoiy muhofazasi va uni qo'llab-quvvatlash, inson xuquqlari va erkinliklarining Qonunchilik hamda huquqiy asoslarini shakllantirish va amalga oshirish masalalariga juda katta ahamiyat berildi.

Ijtimoiy himoya aholining yirik guruhlariga qaratilgan bo'lib, davlat byudjetidan moliyalashtiriladi, ya'ni hukumatning Markaziy va hududiy boshqaruv organlari orqali aholining turmush sifati va darajasini oshirishga qaratilgan faoliyatdir. Bunda davlatning ijtimoiy yordamini aholining muhtoj qatlamlariga hamda har bir nochor oilaga yo'naltirilgandir. O'zbekistonning Davlat byudjetida maxsus "ijtimoiy himoya" bandi

belgilangan bo'lib, bu dunyo tajribasida kamdan-kam uchraydi. Zero, O'zbekona milliy qadriyatlarni bu kabi insonparvarliksiz tasavvur etib bo'lmaydi. Byudjetda ko'zda tutilgan xarajatlardan tashqari, hukumatimiz tomonidan har yili yolg'iz keksalar, pensioner va nogironlarni aniq ijtimoiy muhofaza qilish, ularga ijtimoiy xizmat ko'rsatishni yanada kuchaytirishga qaratilgan maxsus qarorlar qabul qilinmoqda.

Mamlakatimizda mustaqillikning dastlabki yillaridan boshlab aholining ijtimoiy himoyasini ,jamiyatning barcha qatlamlarini ijtimoiy ta'minlanganligi o'rganildi va talabdan ,muammolardan kelib chiqqan holda bartaraf etib kelinadi.

O'zbekiston Respublikasida 2014-yil 22-sentabrda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori bilan "O'zbekiston Respublikasida vasiylik va homiylik to'g'risidagi "Nizom qabul qilindi.<sup>15</sup> Ushbu nizomda yetim hamda ma'lum bir sabablarga ko'ra ota-ona qaramog'isiz qolgan bolalar bundan tashqari muomala layoqatiga ega bo'lmagan shaxslar davlat tomonidan himoyalash , ularni ta'minlashga oid chora-tadbirlar qonuniy asoslarga ko'ra belgilab qo'yilgan.

Nizomga ko'ra ota-ona qaramog'isiz qolgan bolalar to'liq davlat qaramog'ida bo'ladilar va ularning yig'ma jildlari davlat tomonidan muhofaza qilinadi ,davlat organlarining o'rganishlar natijasida loyiq deb topilgan shaxslar mazkur hududning hokimi tomonidan vasiylik yoki homiylikka tayinlanadi, vasiylikka yoki homiylikka tayinlanuvchi shaxsning bevosita arizasiga ko'ra uning oilaviy holati, ruhiy kasalliklar shifoxonada ro'yxatda turmasligi, teri kasalliklari mavjud emasligi, bolani ma'naviy va moddiy jihatdan qo'llab -quvvatlay olishi ,axloqiy jihatlari inobatga olinadi.

Vasiylik va xomiylik — O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik Kodeksining 32-moddasiga muvofiq, vasiylik va xomiylik muomalaga layoqatsiz yoki muomalaga to'liq layoqatli bo'lmagan fuqarolarning huquq va manfaatlarini himoya qilish uchun belgilanadi. Voyaga yetmaganlarga vasiylik va xomiylik ularni tarbiyalash maqsadida ham belgilanadi.vasiylar va xomiylarni bunga tegishli huquq va burchlarni qonun hujjatlari bilan belgilanadi. Vasiylar va xomiylar o'z himoyalaridagi shaxslarning huquq va manfaatlarini har qanday shaxslar bilan munosabatlarda, shu jumladan, sudlarda ham maxsus vakolatsiz himoya qiladilar<sup>16</sup>.

<sup>15</sup> <https://lex.uz.huquqiy.portal>.

<sup>16</sup> O'zbekiston Respublikasi fuqarolik kodeksi.2022-yil 14-iyuldagi tahrir. <https://adolatmarkazi.uz>

Ushbu moddadan ham ma'lumki jamiyatimizda bola huquqlari kafolatlari hamisha himoya qilinadi, hattoki ota-onalik huquqidan mahrum qilingan shaxslarning farzandlariga munosib tarbiya berish agar ota-ona yetarli darajada farzandni ta'minlay olmasa moddiy jihatdan ko'maklasha oladigan vasiy yoki homiyga bola beriladi. Har qanday vaziyatda ham vasiy yoki homiy bolaning hohishiga ko'ra tayinlanadi.

“Bola huquqlarining kafolatlari to'g'risida“gi O'zR Qonunining 3-moddasiga asosan, vasiylik va xomiylik ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarni ularga ta'minot, tarbiya hamda ta'lim berish, shuningdek ularning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish maqsadida joylashtirish huquqiy shakli. Vasiylik 14 yoshga to'lmagan, xomiylik esa 14 yoshdan 18 yoshgacha bolalarag nisbatan belgilanadi<sup>17</sup>

Vasiylik va homiylik tashkilotlari o'z huquqlari doirasida bolani bir marotaba kiyim bosh bilan ta'minlaydilar ,chunki vasiylikka yoki homiylikka ta'yinlangan shaxs bolani moddiy jihatdan ham ta'minlay olishni o'z zimmasiga oladi. Vasiylik yoki homiylik qaramog'iga topshirilgan bola bevosita ta'lim muassasiga biriktilishi lozim. Bolaga nomunosib muomala bo'linayotganligini ko'rib xabar bermaslik qonunga muvofiq javobgarlikka tortilishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi, Adliya vazirligi va Sog'liqni saqlash vazirligi bilan birgalikda quyidagi o'zgartirishlarni nazarda tutuvchi Qonun loyihasini ishlab chiqadi va Vazirlar Mahkamasiga kiritadi, unga ko'ra: ota-onaning o'zi bevosita vasiylik va homiylik organlariga o'z voyaga yetmagan farzandlariga vasiy yoki homiy tayinlash haqidagi ariza bilan bevosita murojaat qilganlarida arizaning notarial tasdiqlangan bo'lishiga oid talab bekor qilinadi. Bunda, ota-onaning o'z voyaga yetmagan farzandlariga vasiy yoki homiy tayinlash haqidagi arizasi vasiylik va homiylik organlari tomonidan tasdiqlanadi;

ota-ona, ulardan biri vafot etgan taqdirda ota yoki ona xorijiy davlatga chiqishi munosabati bilan ota-onalik majburiyatlarini bajara olmaydigan davr uchun, ularning arizasi asosida voyaga yetmagan farzandlariga ularning o'zaro kelishuviga muvofiq tanlangan qarindoshlaridan biri yoki oila qurgan voyaga yetgan farzandi vasiy yoki homiy etib tayinlanadi. Bunda, vasiy yoki homiy etib, bolaning tug'ilganligi to'g'risidagi guvohnoma nusxasi, tayinlanayotgan shaxsning arizasi, uning shaxsini hamda

<sup>17</sup> [Vasiylik va xomiylik - Vikipediya \(wikipedia.org\)](https://ru.wikipedia.org/wiki/Vasiylik_va_xomiylik)

qarindoshligini tasdiqlovchi hujjatlardan tashqari boshqa hujjatlar talab qilinishi mumkin emas;

xorijiy davlatga chiqib ketgan va uch oydan ortiq muddatda xorijiy davlatdan qaytmagan ota-onaning, ulardan biri vafot etgan taqdirda ota yoki onaning voyaga yetmagan farzandlari mavjud bo'lib, ularga nisbatan vasiy yoki homiy tayinlanmagan bo'lsa yoxud ota-onaning, ulardan biri vafot etgan taqdirda ota yoki onaning voyaga yetmagan farzandiga nisbatan vasiy yoki homiy tayinlash to'g'risidagi arizasi bo'lmasa, vasiylik va homiylik organining tashabbusiga asosan ota-onaning roziligi mavjud bo'lishidan qat'iy nazar bolaga nisbatan vaqtincha vasiy yoki homiy tayinlanadi. Bunda, vasiy yoki homiyga o'z vasiyligidagi yoki homiylikdagi shaxsning ta'minoti, unga tarbiya, ta'lim berish va uning sog'lig'ini saqlash majburiyati yuklatiladi;

vasiylik va homiylik organlariga ularga yuklatilgan vazifalarning bajarilishi va vakolatlarni amalga oshirilishi bilan bog'liq bo'lgan axborot va ma'lumotlarni davlat organlari, tashkilotlari va boshqa idoralardan talab qilib oladi, Qonun bilan qo'riqlanadigan sirlar bundan mustasno.<sup>18</sup>

Vasiylik va homiylik organlarining tashkil etilishidan ko'zlangan asosiy maqsad har bir bolaning maanfatlarini ko'zlab unga munosib sharoitlarda yaratgan holda ulg'ayishga ko'maklashish ,bolalar huquqlarining himoya qilinishini ta'minlash ,ularni jamiyatga adaptatsiyalashni tezlashtirishdan iboratdir.

Bu tizimning o'ziga xos muammolari bor bunda qonunga binoan vasiylikka topshirilgan bolalarning hayot darajasi yiliga 2 marotaba o'rganiladi ,ushbu soha yuzasidan bildiradigan taklifim shundan iboratki vasiylik va homiylikka topshirilgan bolani o'rganishlar sonini ko'paytirishdan iboratdir.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Ихтиёр Бахтиёрович Хамрақулов (2021). КИЧИК САНОАТ ЗОНАЛАРИНИ БАРПО ЭТИШ ВА РИВОЖЛАНТИРИШНИНГ НАЗАРИЙ АСОСЛАРИ. Scientific progress, 2 (7), 586-592.

<sup>18</sup> Vasiylik va homiylik organlari bo'yicha prezident qarori [www.lex.uz](http://www.lex.uz).

2. Ихтиёр Бахтиёрович Хамрақулов (2022). КИЧИК САНОАТ ЗОНАЛАРИНИ РИВОЖЛАНТИРИШНИНГ МОЎИЯТИ ВА ЎЗИГА ХОС ҲУСУСИЯТЛАРИ. *Scientific progress*, 3 (1), 328-334.

3. Хамрақулов Ихтиёр Бахтиёрович (2022). КИЧИК САНОАТ ЗОНАЛАРИ ИНВЕСТИЦИОН ФАОЛЛИГИНИ ОШИРИШНИНГ СТРАТЕГИК ИМКОНИАТЛАРИ. *Central Asian Research Journal for Interdisciplinary Studies (CARJIS)*, 2 (Special Issue 2), 140-146.

4. Хамрақулов, И. Б. (2021). Теоретические основы создания и развития малых промышленных зон. In *НАУКА СЕГОДНЯ: ПРОБЛЕМЫ И ПЕРСПЕКТИВЫ РАЗВИТИЯ* (pp. 49-51).

5. Khamrakulov, I. (2022). Organizational and economic foundations for creating small industrial zones in Uzbekistan. *Asian Journal of Multidimensional Research*, 11(10), 233-237.

6. Asqarova, A., Xonkeldiyeva, K., Abdumutalibova, X., & Murotova, D. (2021). Issues of increasing the competitiveness of light industry enterprises. In *Наука сегодня: проблемы и пути решения* (pp. 48-49).

7. Ханкелдиева, Г. Ш. (2017). Перспективы развития электроэнергетической отрасли Республики Узбекистан в условиях модернизации экономических отношений. *Бюллетень науки и практики*, (12 (25)), 293-299.

8. Хайдаров, Х., Нурматова, И., & Хонкелдиева, К. (2021). Факторы формирования сильного конкурентного рынка в текстильной промышленности. In *НАУКА СЕГОДНЯ: ВЫЗОВЫ И РЕШЕНИЯ* (pp. 59-61).

9. Ханкелдиева, Г. Ш. (2017). Особенности корпоративного управления в акционерных обществах с государственным участием. *Бюллетень науки и практики*, (11 (24)), 357-363.

10. Asqarova, A. M., Xonkeldiyeva, K. R., Nomonjonova, F. U., Qodirova, S. Q., & Arabxonova, X. A. (2021). Classification Of Competition In The Market Of Light Industrial Goods And The Factors That Shape It. *The American Journal of Management and Economics Innovations*, 3(01), 43-46.

11. Asqarova, A. M., Xonkeldiyeva, K. R., Abdugarimova, R. A., Xudoyberdiyeva, X. B., & Egamberdiyeva, N. B. (2021). Theories Of Marketing Strategies To Increase The Competitiveness Of Light Industry Enterprises. *The American Journal of Management and Economics Innovations*, 3(01), 40-42.

12. Хонкелдиева, К., Рахимова, Х., & Хасанхужаева, У. (2021). Предупреждение преступности среди несовершеннолетних. In *Наука сегодня: факты, тенденции, прогнозы* (pp. 34-35).

13. Xonkeldiyeva, K., & Xo'jamberdiyev, J. (2020). Экономика и социум.

14. Xonkeldiyeva, K. R. (2021). Features of management of textile industry enterprises based on the cluster approach. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, 11(9), 780-783.

15. Zokirova, S. X., Akbarov, R. F., Isagaliyeva, S. M., & Xonkeldiyeva, K. R. (2021). Sand Distribution In Central Fergana. *The American journal of interdisciplinary innovations and research*, 3(01), 113-117.
16. Zokirova, S. X., Ahmedova, D., Akbarov, R. F., & Xonkeldiyeva, K. R. (2021). Light Industry Enterprises In Marketing Activities Experience Of Foreign Countries In The Use Of Cluster Theory. *The American Journal of Management and Economics Innovations*, 3(01), 36-39.
17. Xonkeldiyeva K., & Xo'Jamberdiyev J. (2020). IMPROVING ORGANIZATIONAL EFFECTIVENESS OF INDUSTRIAL PRODUCTION. *Экономика и социум*, (3 (70)), 145-147.
18. Зокирова, С. Х., Хамракулов, Ж. Б., & Кадилова, Н. Б. (2020). Полевая влагоемкость, влажность почв и песков Центральный Ферганы. *Universum: химия и биология*, (5 (71)), 5-9.
19. Хонкелдиева, К., & Мўйдинжонова, М. (2020). Актуальные проблемы решения безработицы в Республике Узбекистан. In *Наука сегодня: фундаментальные и прикладные исследования* (pp. 18-19).
20. Хонкелдиева, К., & Хўжамбердиев, Ж. (2020). Проблемы развития организации: управленческий и логистический аспекты. In *Наука сегодня: история и современность* (pp. 17-19).
21. Хонкелдиева, К., & Толибжонова, М. (2020). Механизм формирования инновационного процесса в текстильном производстве как основа адаптации к процессам глобализации. In *Наука сегодня: фундаментальные и прикладные исследования* (pp. 15-16).
22. Хонкелдиева, К., & Абдусатторова, З. (2020). Социальная инфраструктура как фактор социально-экономического развития региона. In *Наука сегодня: фундаментальные и прикладные исследования* (pp. 17-18).
23. Бахтиёрович, Ҳ. Ж. (2022). ОЛИЙ ТАЪЛИМ ТИЗИМИ ТАЛАБАЛАРИДА ЭКОЭТИК КОМПЕТЕНТЛИКНИ РИВОЖЛАНТИРИШ ЖАРАЁНИГА ҚЎЙИЛИДИГАН ЗАМОНАВИЙ ПЕДАГОГИК ТАЛАБЛАР. *INTEGRATION OF SCIENCE, EDUCATION AND PRACTICE. SCIENTIFIC-METHODICAL JOURNAL*, 3(4), 1-6.
24. Хонкелдиева, К., & Фарохиддинова, З. (2020). Гендерное равенство как ценность права. *Наука сегодня: факты, тенденции, прогнозы: материя*.
25. Хонкелдиева, К., & Мўйдинжонова, М. (2020). Необходимые условия обеспечения гендерного равенства. In *Наука сегодня: фундаментальные и прикладные исследования* (pp. 40-41).
26. Хонкелдиева, К., Рахимова, Х., & Абдусатторова, З. (2020). Проблемы развития социального обеспечения населения. In *Наука сегодня: фундаментальные и прикладные исследования* (pp. 42-43).
27. Хонкелдиева, К. (2020). Актуальные вопросы повышения экономического потенциала текстильной промышленности. In *Наука сегодня: фундаментальные и прикладные исследования* (pp. 13-15).

28. Хонкелдиева, К., & Фарохиddинова, З. (2020). Гендерное равенство как ценность права. In *Наука сегодня: факты, тенденции, прогнозы* (pp. 61-62).

29. Хонкелдиева, К., & Маматкулова, Ф. (2020). Социально-экономические аспекты устойчивого развития предприятия. In *Наука сегодня: факты, тенденции, прогнозы* (pp. 36-37).